

**BAXMAL AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI – HUDUD MA’NAVIY
TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI****Qarshiboyeva R***Baxmal Axborot-kutubxona markazi**Axborot – Bibliografiya xizmati Bibliografi*

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona xizmatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ushbu yo‘nalishda tub burilish yasagan muhim hujjat bo‘ldi. Mazkur qaror asosida hududlarda zamonaviy axborot-kutubxona markazlarini tashkil etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kitob fondlarini boyitish hamda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida 2019 yil 24 dekabrda Baxmal Axborot-kutubxona markazi tashkil etildi. Baxmal tumani hokimining tashabbusi bilan uzoq vaqt davomida foydalanilmay kelgan bino to‘liq rekonstruksiya qilinib, zamonaviy talablarga mos ravishda ta‘mirlandi. 2020 yil 19 noyabr kuni markaz tantanali ravishda foydalanishga topshirildi. Shu tariqa tumanda aholiga zamonaviy va sifatli axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish uchun mustahkam zamin yaratildi.

Bugungi kunda Baxmal Axborot-kutubxona markazi tumanning yirik ma’naviy-ma’rifiy maskanlaridan biri sifatida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Markazning umumiy kitob fondi 15 289 nusxani tashkil etadi. Shundan 14 156 nusxasi o‘zbek tilidagi adabiyotlar bo‘lib, qolgan qismi xorijiy tillardagi manbalardan iborat. Fond tarkibida 5 929 nusxa badiiy adabiyotlar mavjud. Qolgan adabiyotlar ijtimoiy-siyosiy, tabiiy va aniq fanlar, shuningdek san’at va sport yo‘nalishlariga oid kitoblarni qamrab olgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar markaz fondining mazmunan boy va xilma-xilligini namoyon etadi. Bu esa tuman aholisini shuningdek o‘quvchilar, talaba-yoshlar, o‘qituvchilar hamda turli soha mutaxassislarining axborotga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish imkonini bermoqda.

Hozirgi kunda kutubxonada 8 952 nafar foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, shundan 4 079 nafari erkaklar, 4 873 nafari xotin-qizlarni tashkil etadi. Foydalanuvchilar sonining yildan-yilga ortib borayotgani hududda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Baxmal Axborot-kutubxona markazi nafaqat kitoblar jamlangan maskan, balki hududning ma’naviy hayotida faol ishtirok etayotgan madaniy-ma’rifiy markaz hamdir. Markazda yil davomida turli mavzularda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar va tanlovlar o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan:

“Kitobxonlik haftaligi” doirasida ko‘rik-tanlov va targ‘ibot tadbirlari;

“Eng faol kitobxon” hamda “Yosh kitobxon” tanlovlari;

“Zakovat” intellektual o‘yinlari;

Mashhur shoir va yozuvchilar bilan ijodiy uchrashuvlar;

Yangi nashr etilgan adabiyotlar taqdimotlari;

Muhim tarixiy sana va bayramlarga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy kechalar;

Maktab va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikdagi sayyor kutubxona xizmatlari.



Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu boradagi ishlar hududda sog‘lom ma’naviy muhitni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, markazda kitobxonlar uchun qulay o‘quv zallari, tartibli fond xonalari hamda zamonaviy axborot-resurs xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan. Zarur adabiyotlarni izlab topish va foydalanish jarayoni soddalashtirilgan bo‘lib, bu aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan qaror va farmonlar asosida tashkil etilgan Baxmal Axborot-kutubxona markazi bugungi kunda nafaqat Baxmal tumani, balki butun hududning ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin egallab kelmoqda. U yosh avlodni bilimli, vatanparvar va keng dunyoqarashli etib tarbiyalashda, jamiyatda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. Baxmal

Axborot-kutubxona markazi faoliyati kelgusida ham yanada takomillashib, hudud aholisi uchun chinakam ma’rifat maskani bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.